

AMIR TEMUR NABIRASINING DUNYOGA KELISHI

Abduxamidov Abdumuxtor Abdulvojid o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazi bibliografi –

Saliyev Ug‘iloy Kalmurat qizi

Toshkent davlat transport universiteti Elektrotexnika va
kompyuter muhardsligi fakulteti RQ-4 guruh talabasi

Annotatsiya:

Sharq Islom olamining yetuk olimlari qatorida o‘z mehnatlari va ilmiy xizmatlari bilan ilm-fan va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ta’sir ko‘rsatgan, o‘rta asrlarda jahondagi eng muvaffaqiyatli rasadxonani tashkil qilgan, XVI asrda Turkiya orqali G‘arb ilm-fan doiralariga ma’lum bo‘lgan va uzoq yillar mobaynida dunyo astronomiya fanida muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” astronomiya jadvali yaratuvchisi, Samarqand podshohi tarix sahifalaridan buyuk olim, o‘z davrining ma’lum va mashhur siyoshi, atoqli matematik va astronom Mirzo Ulug‘bek.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, Maqsud Shayxzoda, Samarqand, fabula.

Amir Temurning nabirasi bo‘lmish Mirzo Ulug‘bek 1394-yilda Sultoniy shahrida tavallud topgan. Uning otasi Shohruh Buyuk Sohibqironning bevosita davomchisi sifatida Temuriylar imperiyasini bir necha o‘n yillar mobaynida muvaffaqiyatli boshqargan. Mirzo Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim – g‘oyatda o‘qimishli, san’atda nihoyatda nozik didga ega malika bo‘lgan. Bo‘lajak podshoh bolalik yillaridanoq boshqalarnikiga o‘xshamagan xotirasi, til o‘rganishga bo‘lgan iste’dodi bilan ajralib turgan. Mirzo Ulug‘bek avvaliga arab, so‘ng fors hamda hind tillarini, notiqlik san’ati va adabiyot sirlarini o‘rgangan.

1405 yil, Markaziy Osiyodan tashqari, Yaqin va O‘rta Sharqning barcha hududi, O‘rtayer dengizidan Shimoiy Hindistongacha bo‘lgan katta yerni o‘z ichiga olgan ulkan sultanatni yaratgan buyuk sohibqironning o‘limidan so‘ng, butun merosiy mulki uning o‘g‘il va nabiralariga o‘tadi. Temuriylar sultanatining tepasiga Hirot qarorgohida saylangan Temurning o‘g‘li - Shohruh o‘tiradi.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st April, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Mavaraunnahr boshqaruvi Shohruhning to‘ng‘ich o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi Ulug‘bekka topshiriladi. 1409 yil Ulug‘bek Samarqand hokimi etib e’lon qilinadi, otasi Shohruhning o‘limidan so‘ng, 1447 yil Temuriylar sulolasiga bosh bo‘ladi.

Bobomiz Mirzo Ulug‘bek haqida gap ketsa, ko‘z oldimizda albatta, Samarqand shahri va Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi gavdalanadi. Samarqand haqidagi barcha ma’lumotlar mujassam. Birinchidan, Samarqand poytaxt shahar bo‘lgan; ikkinchidan, ne-ne buyuk shaxslar u yerda podshohlik qilganlar; uchinchidan, mashhur madrasalar u yerda ham tashkil etilgan bo‘lib, ularda Hazrat Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi she’riyat olamining porloq yulduzlari tahsil olishgan; to‘rtinchidan, bu shaharda adabiyot, san’at va hunarmandchilik dunyosining mashhur vakillari yetishib chiqqanlar; beshinchidan; yer yuzining hech bir go‘shasida bo‘lmagan osori atiqalar qad ko‘targan va ular hozirgacha Samarqandga sayqal berib turibdi; oltinchidan, necha zamonlardan beri buyuk shaxslarning: Qusam ibn Abbos, jahongir Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, hazrati Xizr kabilarning maqbaralari dunyo xalqlarining ziyoratgohlari sifatida odamlarni o‘ziga chorlaydi; yettinchidan, O‘zbekistonda eng birinchilardan bo‘lmish Samarqand davlat universiteti ming-minglab malakali mutaxassislarni yetkazib bermoqda; sakkizinchidan, Samarqandning o‘ziga o‘xshagan zalvorli noni hech qayerda bunchalik mazali pishirilmaydi; to‘qqizinchidan, Samarqandning mashhur Siyob bozorida joningizdan boshqa hamma narsa topiladi; o‘ninchidan, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov maqbarasi ham (ruhlari shod bo‘lsin) shu yerdagi buyuk insonlar maqbarasi qatoridan joy olgan.

Eh-he, Samarqandga sayqal berib turgan bunday durdona marjonalarni sanab sanog‘iga yetolmaydi kishi. Ularning ichidan e’tiborimizni tortgan shoh, olim, astronom, matematik, gumanist (insonparvar) shaxs haqida yozilgan, salkam unutilayozgan asar Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi misolida Samarqandga hamon sayqal bo‘lib kelayotgan Mirzo Ulug‘bek haqida fikr bayon qilmoqchimiz. Zero, har bir unutilgan narsa yangilikdir, degan naql bor.

Tarixiy adabiyotlarda Mirzo Ulug‘bekning tug‘ilgan vaqtidan boshlab, voyaga yetgani, shohlik darajasiga ko‘tarilganligi va vafoti haqida ma’lumotlar bor. Maqsud Shayxzoda ana shunday faktlarga asoslanib, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yaratgan. Bu asar uning shohlik faoliyati davridan boshlanadi.

Agar tarix ilmida voqealar ketma-ketligi xronologik tartibda va faqat dalillardan iborat bo‘lsa, badiiy asarda bu dalillarga yana boshqa ma’lumotlar qo‘shiladi.

Masalan, Ulug‘bekning u yoki bu muammo haqidagi o‘ylari, uning atrofidagi odamlar va ziddiyatli kimsalarning unga munosabatlari, ularning gap-so‘zлari muallif tomonidan o‘ylab chiqariladi. Bu faktlarni keyingi paytda fabula deyishmoqda. Internetning Vikipediya sahifasida fabulaga shunday izoh beriladi: “Fabula bu — asarda ifodalanayotgan hikoyaning daliliy tomoni, ya’ni undagi voqealar, tasodiflarning, harakatlarning, holatlarning dalillari, ularning sabab-oqibatli, xronologik ketma-ketligi bo‘lib, ular muallifning ijodiy faoliyati jarayonida syujetda o‘zi tasvirlayotgan voqealar taraqqiyotiga mo‘ljallangan holatlarning qonuniyatlar asosida yaxlitlashtiriladi va shakllantiriladi.

Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” asari posbonlarning suhbati va elchilarning kutib olinishiga tayyorgarlik bilan boshlanadi. So‘ngra Ulug‘bek Chin Mochin, Hindiston, Misr, Farangiston, Rus davlatidan kelishgan elchilar bilan turli mavzuda suhbatlashadi va ularga o‘zining “Yulduzlar jadvali”ni taqdim qilar ekan, shunday deydi:

Bu asarlar uzoq mehnat samarasidir

Shu jadvalda keltirilgan ta’rif va tavsif

Ko‘kda bir ming o‘n sakkizta yulduzga oid.

Borib bering shahringizda munajjimlarga

Topganini baham ko‘rar jo‘mard odamlar.

Kitoblarni bir-bir elchilarga tutib, ular bilan qo‘l berib xayrashadi.

Shayxzodaning o‘z kitoblariga “O‘n besh yillik daftari” yoki “Chorak asr devoni” deb sarlavha qo‘yishidan ham bilish mumkun-ki, shoirning o‘zi “Inson umri cheklangan muhlatli daftar”, demak bu daftarni foydali, ezgu ishlar - “yozuvlar” bilan to‘ldirish lozim deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi
- 2) Naim Karimning “Maqsud Shayxzoda” asari
- 3) <https://arboblar.uz>